

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XAYRULLAYEV SARDOR SHAMSIDDIN O‘G‘LI**

**SOYA NAVLARIDAN YUQORI VA SIFATLI HOSIL YETISHTIRISHNI  
TA‘MINLAYDIGAN MIKROO‘G‘ITLARNING TA‘SIRINI ILMIY  
ASOSLASH (TOSHKENT VILOYATINING O‘TLOQI-BOTQOQ  
TUPROQLARI SHAROITIDA)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on  
agricultural sciences**

**Xayrullayev Sardor Shamsiddin o‘g‘li**

Soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta‘minlaydigan mikroo‘g‘itlarning ta‘sirini ilmiy asoslash (Toshkent viloyatining o‘tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida).....

3

**Хайруллаев Сардор Шамсиддин ўғли**

Научное обоснование влияния микроудобрений на обеспечение высокого и качественного урожая сортов сои ( в условиях лугово-болотных почв Тошкентской области).....

21

**Khayrullaev Sardor Shamsiddin ugli**

Scientific substantiation of the effect of microfertilizers that ensure high and high-quality harvest from soybean varieties (in the conditions of meadow-swamp soils of the Tashkent region).....

41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XAYRULLAYEV SARDOR SHAMSIDDIN O‘G‘LI**

**SOYA NAVLARIDAN YUQORI VA SIFATLI HOSIL YETISHTIRISHNI  
TA‘MINLAYDIGAN MIKROO‘G‘ITLARNING TA‘SIRINI ILMIY  
ASOSLASH (TOSHKENT VILOYATINING O‘TLOQI-BOTQOQ  
TUPROQLARI SHAROITIDA)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Qx821 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Atabayeva Xalima Nazarovna**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **1. Maxmatmurodov Alisher Ulmasovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  
**2. Ismayilov Jumanazar Ismatovich**  
qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:** **Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (99871); faks: (+99871); e-mail:[taug-info@edu.uz](mailto:taug-info@edu.uz); Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**U.Norqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d.,  
professor.

**A.A.Qurbonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
q.x.f.f.d., dotsent.

**M.S.Raxmankulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Bugungi kunda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida qariyb 127,0 mln.ga maydonda soya ekini parvarishlanib, yetishtirilmoqda va yalpi hosil 370,2 mln.tonnani hamda o'rtacha hosildorlik 29,0 s/ga ni tashkil etmoqda<sup>1</sup>. "Jami ekin maydonining 90 % dan ortig'i Braziliya (34,0 %), AQSh (32,0 %), Argentina (20,0 %), Xitoy (5,5 %) va Hindiston (3,0 %) mamlakatlariga to'g'ri kelmoqda"<sup>2</sup>. "Bir qator statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda soya ishlab chiqarish hajmini 2029 yilgacha 7,0 % ga oshirish va yalpi hosilni 410,0 mln.tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan"<sup>3</sup>. Mazkur mamlakatlarda soyani parvarishlashda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda biologik faol moddalar va mikroo'g'itlar bilan bargidan oziqlantirish agrotadbirlarini bajarilishi hisobiga yuqori va sifatli don hosili olishga erishilmoqda. Soya ekinidan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda navlarni tanlash, qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda mikroo'g'itlardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirda dunyoning yetakchi soya yetishtiruvchi mamlakatlaridagi ilmiy markazlarda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda yangi navlarni yaratish va mavjudlarini muayyan hududlarga moslashtirish, innovatsion agrotexnologik elementlarni qo'llash, jumladan o'simlikni o'sishi va rivojlanishini yaxshilovchi, don hosildorligini oshirish va texnologik sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minlovchi maqbul mikroo'g'it turlari va me'yorlarini aniqlash bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, soya o'simligining ekologik va agrotexnik ahamiyatini inobatga olgan holda uni parvarishlashda qo'llaniladigan organik va mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda mikroo'g'itlarni qo'llash orqali yuqori va sifatli don hosili olishni ta'minlovchi tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda aholini oqsilga boy oziq-ovqat, sanoatni arzon xom-ashyo mahsulotlari va chorvani to'yimli ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda tuproq unumdorligini oshirish maqsadida soya ekinini yetishtirish keng yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida<sup>4</sup> yaqin kelajakda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va ushbu jabhani rivojlantirish yuzasidan agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobarga ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini 5 foizga yetkazish kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan. Shu boisdan, mamlakatimizda tobora ommalashib borayotgan va yaqin kelajakda aholini oziq-ovqat hamda chorvani ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda ekologik toza

<sup>1</sup> <http://www.worldagriculturalproduction.com/crops/soybean.aspx>

<sup>2</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/List\\_of\\_countries\\_by\\_soybean\\_production](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_countries_by_soybean_production)

<sup>3</sup> <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/soybean-market>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

mahsulot yetishtirish, tuproq unumdorligini oshirish va boshqa bir qator masalalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan soya ekinini yangi navlarini yaratish, mavjudlarini parvarishlash agrotexnologiyasi elementlarini takomillashtirish, xususan mineral o'g'itlar me'yorlarini mikroo'g'itlarni qo'llash hisobiga kamaytirishning samarali usullarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-avgustdagi VMQ-330-son "Qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V."Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soya ekinidan yuqori, barqaror va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha xorijda juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, jumladan AQShda D.U.Kuk, C.J.De Mooy, Ye.Spaldonlar soya hosildorligiga mineral o'g'itlar turlari va oziqlantirish me'yorlarining ta'siri, I.Jones soyaning ildiz rivojlanishi va urug' hosiliga fosfor va kaliy o'g'itlarni ta'siri, Hindistonda A.S.Kapoor, U.P.Gurta, Vineet Kumar va boshqalar soyaning kimyoviy tarkibiga fosforli o'g'itlarning ta'siri, Rossiyada I.G.Kovshik, V.V.Rusakovlar soya hosildorligini uning biologiyasi va agrotexnologiyasiga bog'liqligi, V.O.Kudryashov, P.N.Stolkov, L.I.Spiridonovlar mikroo'g'itlarning hosildorlikka ta'sirini o'z tadqiqot ishlarida o'rganishgan. Mamlakatimizda X.N.Atabayeva, D.Yormatova, N.Xalilov, B.M.Xoliqov, M.Abzalov, R.Siddiqov, M.A.Sattarov, M.Mannopova, A.A.Iminov, N.S.Umarova, I.Abitov va boshqa ko'plab olimlar tomonidan yangi soya navlarini yaratish, soya navlarining biologiyasi, ekish muddati, me'yori va usullari, o'g'itlash me'yorlari va yetishtirish agrotexnologiyasining boshqa elementlarini ishlab chiqishga doir keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo, Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya navlarini asosiy ekin sifatida yetishtirishda tavsiya etilgan mineral o'g'itlar me'yorlari fonida mikroo'g'itlarni o'simlikni bargidan oziqlantirishning maqbul muddat va me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti "O'simlikshunoslik va moyli ekinlar" kafedrasining "Dala ekinlarining zamonaviy yetishtirish texnologiyalarini yaratish va takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining bir bo'limi sifatida hamda №QX-A-QX-2018-474. "O'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mineral o'g'itlar

fonida mikroo'g'itlarning soya navlari hosildorligiga ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslash" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soyaning Orzu va Nafis navlarini asosiy ekin sifatida yetishtirishda mineral o'g'itlar fonida mikroo'g'itlar bilan bargdan oziqlantirish me'yorlarini o'rganishning uning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini aniqlash va ilmiy asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soya navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosil shakllanishiga mineral o'g'itlar fonida oltingugurt ( $\text{SO}_3$ ) va marganes ( $\text{MnSO}_4$ ) mikroo'g'itlarining ta'sirini aniqlash;

o'rganilayotgan mineral o'g'itlar fonida oltingugurt ( $\text{SO}_3$ ) va marganes ( $\text{MnSO}_4$ ) mikroo'g'itlarining ta'sirida soya navlarining fotosintetik faoliyati ta'sirini aniqlash;

o'rganilayotgan mineral o'g'itlar fonida oltingugurt ( $\text{SO}_3$ ) va marganes ( $\text{MnSO}_4$ ) mikroo'g'itlarining soya navlarining simbiotik faoliyatiga ta'sirini aniqlash;

o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlar fonida mikroo'g'itlar qo'llashning soya ekinining don hosildorligi va uning texnologik sifat ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlari, mineral o'g'itlar fonida oltingugurt va marganes mikroo'g'itlari, soyaning ertapishar "Orzu" va o'rtapishar "Nafis" navlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, soya navlarini parvarishlashda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar me'yorlari fonida mikroo'g'itlar bilan turli me'yorlarda bargidan oziqlantirishning o'simlikni o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyati, ildizning rivojlanishi, don hosili va sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** Dala tajribalarini o'tkazish, hisoblashlar va kuzatishlar "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур", "Dala tajribalarini o'tkazish usullari (PSUAITI)" va B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" qo'llanmasi asosida, tuproq tahlillari "Методы агрохимических анализов почв и растений" qo'llanmasi asosida, barg yuzasi Nichiporovichning (vazn uslubi) uslubida, tuganaklar soni va vazni G.S.Posipanov usulida, iqtisodiy ko'rsatkichlar V.N.Polozhiy uslubida, tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soyaning ertapishar "Orzu" va o'rtapishar "Nafis" navlarini faol o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydigan mineral o'g'itlar fonida oltingugurtni sof holda 180 g/ga (545 g/ga fizik holda) va marganesni sof holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me'yorlarda qo'llash maqbul ekanligi aniqlangan;

mineral o'g'itlarning  $\text{N}_{50}\text{P}_{100}\text{K}_{70}$  kg/ga me'yori fonida soyaning ertapishar "Orzu" va o'rtapishar "Nafis" navlarida mikroo'g'itlarni bargi orqali qo'llashning o'simliklarni quruq massa to'plashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hisobiga 1 ga

maydonda “Orzu” navida oltingugurt ta’sirida nazoratga nisbatan 17,0-36,8 % va marganes ta’sirida 21,2-44,1 % ga, “Nafis” navida tegishli 14,4-26,9 % va 18,4-33,6 % ga ortib, fotosintetik faoliyati ham jadal kechishi natijasida navlar bo’yicha o’rtacha 51,1-64,6 va 45,6-56,4 ming m<sup>2</sup>/ga barg yuzasi shakllangan va fotosintez so’f mahsuldorligi sutkasiga 0,2-0,9 va 0,3-1,1 g/m<sup>2</sup>.kun/ga ortishi aniqlangan;

soyaning “Orzu” va “Nafis” navlarida mineral o’g’itlarning N<sub>50</sub>P<sub>100</sub>K<sub>70</sub> kg/ga me’yori fonida oltingugurt so’f holda 180 g/ga (545 g/ga fizik holda) va marganesni so’f holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me’yorlarda qo’llanilishi hisobiga o’simlikning faol simbiotik faoliyati uchun maqbul sharoit vujudga kelishi natijasida o’rtacha gektariga 7,79-9,56 va 6,66-7,17 sentnergacha azot faol o’zlashtiruvchi tuganak bakteriyalar hosil bo’lishi bilan birga, tuproqda 28,6-30,4 va 30,6-32,0 s/ga miqdorida ildiz massasi qoldirishi aniqlangan;

soya navlarini yetishtirishda mineral o’g’itlarning N<sub>50</sub>P<sub>100</sub>K<sub>70</sub> kg/ga me’yori fonida oltingugurt so’f holda 180 g/ga (545 g/ga fizik holda) va marganesni so’f holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me’yorlarda qo’llanilishi yuqori va sifatli hosil shakllanishini ta’minlashi natijasida “Orzu” navida 26,4-35,7 s/ga, “Nafis” navida 28,9-38,5 s/ga don hosili olinganligi hamda don tarkibidagi oqsil miqdori mos ravishda 1,6-8,4 % va 2,8-8,5 % ortganligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

soya navlarini mikroo’g’itlar bilan o’simlikning bargi orqali oziqlantirilishi hisobiga mineral o’g’itlar me’yorlarini tejash va o’simlik tomonidan foydalanish samaradorligini oshirishni taminlagan;

mineral o’g’itlar fonida mikroo’g’itlarning maqbul (oltingugurt so’f holda 180 g/ga yoki 545 gr/ga fizik holda va marganesni so’f holda 300 g/ga yoki 1,0 kg/ga fizik holda) me’yorlarda qo’llanilishi soya navlarini faol o’sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy tasir ko’rsatib, o’simlikning bo’yi 6,9-10,9 % ga; barg yuzasi 3,4-13,8 ming m<sup>2</sup>/ga ortganligi natijasida “Orzu” navining don hosili 14,8-47,3 % ga, “Nafis” navining don hosili 17,7-24,9 % ga yuqori bo’lgan;

mineral o’g’itlarning N<sub>50</sub>P<sub>100</sub>K<sub>70</sub> kg/ga me’yori fonida mikroo’g’itlarni maqbul (oltingugurt so’f holda 180 g/ga yoki 545 gr/ga fizik holda va marganesni so’f holda 300 g/ga yoki 1,0 kg/ga fizik holda) me’yorlarda qo’llanilishi 31,0-38,5 s/ga don hosili olishni ta’minlab, rentabellik darajasini navlar bo’yicha o’rtacha oltingugurt ta’sirida 177,1 va 157,9 %; marganes ta’sirida 161,9 va 159,7 % ni tashkil etishi hisobiga yetishtirilgan donni tannarxi pasayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari laboratoriya va dala tajribalarining zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda variatsion-statistik ishlovdan o’tkazilganligi hamda olingan ma’lumotlarni uslubiy jihatdan to’g’riligi va har yili maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangani, olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil uslublaridan to’g’ri foydalanilganligi va olingan natijalarning tajriba ma’lumotlari bilan mos kelishi, tajribadan chiqarilgan xulosalar va qonuniyatlarning asoslanganligi hamda natijalarning Respublika va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi uning ishonchliligini ko’rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soyaning "Orzu" va "Nafis" navlarini parvarishlashda tavsiya etilgan mineral o'g'itlar me'yorlari fonida oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarini maqbul me'yorlarda qo'llanilishi o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyati hamda hosilning shaklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Toshkent viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soyaning "Orzu" va "Nafis" navlarini parvarishlashda tavsiya etilgan mineral o'g'itlar me'yorlari fonida oltingugurt va marganes mikroo'g'itlari bilan o'simlikni bargi orqali suspenziya shaklida oziqlantirilishi natijasida don hosildorligini ortishi va sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi hisobiga yuqori samaradorlikka erishilganligi hamda tadqiqotlardan olingan natijalarni amaliyotga keng joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Toshkent viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan mineral o'g'itlar me'yorlari fonida mikroo'g'itlarni qo'llashning maqbul muddat va me'yorlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

soya navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishni ta'minlashda mineral o'g'itlar me'yorlari fonida oltingugurt va marganes mikroo'g'itlari bilan o'simlikni bargi orqali suspenziya shaklida oziqlantirish bo'yicha "Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya ekinidan yuqori va sifatli don yetishtirish bo'yicha tavsiyalar" tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-yanvardagi №02/25-05/126-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyanoma bugungi kunda Toshkent viloyatining fermer xo'jaliklari va klasterlarida soyani parvarishlashda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

soyaning "Orzu" va "Nafis" navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlarning  $N_{50}P_{100}K_{70}$  kg/ga me'yor qo'llanilgan fonda oltingugurtni sof holda 180 g/ga (545 gr/ga fizik holda) va marganesni sof holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me'yorlarda o'simlikni bargi orqali suspenziya shaklida qo'llash texnologiyasi Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida O'rta Chirchiq tumanidagi Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba xo'jaligi dalalarida 9,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-yanvardagi №02/25-05/126-son ma'lumotnomasi). Natijada, mineral o'g'itlarning  $N_{50}P_{100}K_{70}$  kg/ga me'yor qo'llanilgan fonda oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarini soyaning shonalash va gullash davrlarida 2 marta bargdan oziqlantirilganda, mos ravishda "Orzu" navidan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda 33,8 s/ga va marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda 33,4 s/ga, "Nafis" navidan esa mos ravishda 34,6 va 36.5 s/ga don hosili olishga erishilgan;

soyaning "Nafis" navini yetishtirishda mineral o'g'itlarning  $N_{50} P_{100} K_{70}$  kg/ga me'yor qo'llanilgan fonda oltingugurtni sof holda 180 g/ga (545 gr/ga fizik holda) va marganesni sof holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me'yorlarda o'simlikni bargi orqali suspenziya shaklida qo'llash texnologiyasi Yangiyo'l tumanidagi "Ulug'bek Nodirbek omad" fermer xo'jaligida 15,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq

xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-yanvardagi №02/25-05/126-son ma'lumotnomasi). Natijada, soyaning "Nafis" navidan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda 33,9 s/ga, marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda 35,4 s/ga don hosili olingan;

soyaning "Nafis" navini yetishtirishda mineral o'g'itlarning N<sub>50</sub> P<sub>100</sub> K<sub>70</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda oltingugurtni sof holda 180 g/ga (545 g/ga fizik holda) va marganesni sof holda 300 g/ga (1,0 kg/ga fizik holda) me'yorlarda o'simlikni bargi orqali suspenziya shaklida qo'llash texnologiyasi Piskent tumanidagi "Ismatov Islom" fermer xo'jaligining 12 gektar maydonida va Oqqo'rg'on tumanidagi "T.Islom" fermer xo'jaligining 14 gektar maydonida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-yanvardagi №02/25-05/126-son ma'lumotnomasi). Natijada, mineral o'g'itlarning N<sub>50</sub>P<sub>100</sub>K<sub>70</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarini soyaning "Nafis" navini shonalash va gullash davrlarida 2 marta bargdan oziqlantirilganda, hosildorlik mos ravishda 31,8-32,4 va 33,2-33,9 s/ga, rentabellik darajasi esa 172,1-175,6 va 183,4-187,7 % ni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala va laboratoriya tajribalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilgan va ijobiy baholangan, tadqiqot o'tkazilgan yillar bo'yicha yozilgan yillik hisobotlar universitetning Uslubiy va Ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari Respublika miqyosidagi anjumanlarda 4 marta va xalqaro anjumanlarda 2 marta ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Soya o'simligining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga mikroo'g'itlarning ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlili (adabiyotlar sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar

natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, soya ekini bo'yicha mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlarni qo'llashning o'simlik o'sishi va rivojlanishini yaxshilash, amal davrining davomiyligi, fotosintez va simbiotik faoliyati, shoxlanishi, birinchi dukkak joylashish balandligi, mingta don vazni, biometriyasi, soya hosili va don sifatini oshirishini yaxshilashdagi ahamiyati batafsil bayon etilgan. Adabiyotlar tahlilining so'ngida tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda soya o'simligini yetishtirishda mikroo'g'itlarni bargdan qo'llashni hisobga olgan holda ular me'yorlarini to'g'ri belgilash orqali yuqori va sifatli hosil olish zarurati belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi, sharoiti va uslubi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, dala tajribalari o'tkazilgan mintaqaning geografik o'rni, tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o'tkazish uslublari, shuningdek, soya yetishtirishda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar va tadqiqotlarni olib borishda foydalanilgan soyaning “Orzu” va “Nafis”navlarining tavsifi keltirilgan.

Dala tajribalari Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba dalalarida o'tkazilib, dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” (PSUAITI), “Методика полевого опыта” (B.Dospexov), “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”, “Методы агрохимических, агрофизических исследований почвы Средней Азии” uslublaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida va B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyatiga mineral o'g'itlar fonida mikroo'g'itlarning ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida, mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlarning soya navlarining tup soni va saqlanish darajasi, o'sishi, rivojlanish davrlari davomiyligi, simbiotik faoliyati va ildiz rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, shoxlanishi, pastdagi birinchi dukkagining joylashish balandligi, mingta don vazniga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Soya navlariga mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlar ta'sirida amal davri boshidagi tup soni bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, Orzu navining nazorat variantida 482,8 ming/ga yoki 96,5% ni, mineral o'g'itlar ta'sir ettirilgan ikkinchi variantda 487,0 ming/ga va 97,4%, mineral o'g'itlar fonida oltingugurt mikroo'g'iti ta'sir ettirilgan variantlar bo'yicha bu mos ravishda 486,3-489,5 ming/ga yoki 97,6-97,9 % gacha, mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'itining turli me'yorlari ta'sir ettirilganda tup soni tegishlicha 486,3-489,8 ming/ga yoki 97,3-98,0 % gacha bo'lganligi aniqlandi. Nafis navining nazorat variantida amal davri boshidagi tup soni 384,9 ming/ga yoki 96,2% ni, mineral o'g'itlar ta'sir ettirilgan variantda 390,7 ming/ga 97,7%, oltingugurt mikroo'g'iti ta'sir ettirilgan variantlarda bu mos ravishda 387,9-391,6 ming/ga yoki 96,9-98,1 %, mineral o'g'itlar fonida marganes mikroo'g'iti ta'sir ettirilganda tup soni tegishlicha 387,5-391,5 ming/ga yoki 96,9-97,9 % gacha bo'lganligi aniqlandi.

O'rtacha 3 yildagi Soya navlarining amal davri oxiridagi tup soni va saqlanish

darajasi aniqlanganda, Orzu navining nazorat variantida saqlangan tup soni 451,5 ming/ga yoki 93,5% ni, mineral o'g'itlar ta'sir ettirilgan variantda 457,0 ming/ga va 93,8%, mineral o'g'itlar fonida oltingugurt mikroo'g'iti ta'sir ettirilgan variantlarda bu mos ravishda 471,0-472,6 ming/ga yoki 96,3-97,2 %, mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti ta'sir ettirilganda tup soni tegishlicha 455,8-464,1 ming/ga yoki 94,1-95,0 % ekanligi aniqlandi. Nafis navining nazorat variantida amal davri oxiridagi tup soni 355,3 ming/ga yoki 92,3 % ni, mineral o'g'itlar ta'sir ettirilgan variantda 367,7 ming/ga va 94,1%, mineral o'g'itlar fonida oltingugurt mikroo'g'iti ta'sir ettirilgan variantlarda bu mos ravishda 376,3-374,0 ming/ga yoki 95,5-97,0 %, marganes mikroo'g'iti ta'sir ettirilganda tup soni tegishlicha 375,4-377,8 ming/ga yoki 95,9-97,0 % ni tashkil etdi.

Soya navlarining rivojlanish davrlarining o'tishi va amal davriga mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlar me'yorlarining ta'siri aniqlanib, Orzu navining nazorat variantda amal davri 110 kun, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida 111 kun, mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti ta'sirida rivojlanish davri 108-110 kun davom etib, oltingugurt ta'sirida amal davri qisqarganligi kuzatildi. Mineral o'g'itlar fonida marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda soya navlarining rivojlanishi 110-113 kunni tashkil qilib, amal davri uzayganligi qayd etildi. Nafis navining nazorat variantida amal davri 132 kunni tashkil qildi. Mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlarning ta'sirida amal davri davomiyligida ham Orzu navidagidek qonuniyat kuzatilib, mineral o'g'itlar fonida amal davri 133 kun, mineral o'g'it+oltingugurt ta'sirida 132-130 kun, mineral o'g'it+marganes ta'sirida 132-135 kunni tashkil qildi.


Ushbu mikroo'g'itlarning o'simlik o'sishiga ta'siri aniqlanganda Orzu navining nazorat variantida poya balandligi 103,3 sm.ni tashkil qildi. Mineral o'g'itlar ta'sirida 107,9 sm.ni tashkil etib, nazorat variantdan 4,3 % ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Mineral o'g'itlar fonida oltingugurt ta'sir ettirilganda poya balandligi 110,9-114,7 sm.ni tashkil qilib, nazorat variantga nisbatan 7,4-11,0% bo'lganligi aniqlandi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti ta'sirida poya balandligi 112,9-116,2 smni tashkil qilib, nazorat variantga nisbatan 9,3-12,5 %ga yuqori natija olindi. Nafis navining nazorat variantida poya balandligi 142,9 sm.ni tashkil qildi. Mineral o'g'itlar foni ta'sirida 147,1 sm.ni tashkil etib, nazorat variantdan 2,9 % ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Mineral o'g'itlar fonida oltingugurt qo'llanilganda poya balandligi 150,8-156,1 sm.ni tashkil qilib, nazorat variantga nisbatan 5,5-9,2 %ga yuqori, mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti ta'sirida poya balandligi 153,6-160,3 sm.ni tashkil qilib, nazorat variantga nisbatan 7,5-12,2 %ga yuqori natija olindi. Har ikkala navda ham mikroo'g'itlar orasidan eng yaxshi natija oltingugurt va marganesning o'rta me'yorida kuzatildi.

Soya navlarida barg shakllanishiga mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlar ta'siri aniqlandi. Soyaning "Orzu" navining nazorat variantida 28,4 dona bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan Fon variantida barg soni 31,4 dona bo'ldi va nazorat variantiga nisbatan 10,6 % ga oshdi.

Mineral o'g'itlar foni bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilgan variantlarda barg soni 35,0-37,8 dona bo'lib, nazoratga nisbatan 23,2-33,1 % ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes me'yorlari qo'llanilgan variantlarda barg soni 35,1-37,1 dona bo'ldi va nazoratga nisbatan 23,6-30,6 % ga oshdi. Barg soni oltingugurt va marganes

mikroo'g'itlarini o'rta me'yorda qo'llanilganda yuqori bo'lganligi kuzatildi. Soyaning "Nafis" navining nazorat variantida 33,4 dona bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan fon variantida barg soni 36,2 dona bo'ldi va nazorat variantiga nisbatan 8,4 % ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt me'yorlari qo'llanilgan variantlarda barg soni 37,8-39,1 dona bo'lib, nazoratga nisbatan 13,2-17,1 % ga oshdi. Mineral o'g'itlar fonida marganes me'yorlari qo'llanilgan variantlarda barg soni 36,7-38,7 dona bo'ldi va nazoratga nisbatan 9,9-15,9 % ga oshdi. Oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarining o'rta me'yorda qo'llanilganda barg soni yaxshi shakllanganligi qayd etdi.

Soya navlarida barg yuzasi shakllanishiga mineral va mikroo'g'itlar ta'siri aniqlandi. Soya navlarining barg yuzasi "Orzu" navida nazorat variantida 51,1 ming m<sup>2</sup>/ga.ni tashkil etib, fon varianti nazorat variantidan 4,0 ming m<sup>2</sup>/ga oshdi. Mineral o'g'itlar fonida oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilgan variantlar nazorat variantidan 8,0-12,2 ming m<sup>2</sup>/ga.ga oshdi. Mineral o'g'itlar fonida marganes mikroo'g'iti qo'llanilgan variantlar nazorat variantidan 8,8-13,5 ming m<sup>2</sup>/ga.ga oshdi. Oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarini o'rta me'yorda qo'llanilganda barg yuzasi yaxshi shakllanganligi aniqlandi. "Nafis" navining nazorat variantida 45,6 ming m<sup>2</sup>/ga tashkil qilib, fon varianti nazorat variantidan 3,4 ming m<sup>2</sup>/ga.ga oshdi (1-rasm).



**1-rasm. Soya navlari barg yuzasiga mikroo'g'itlarning ta'siri, (2018-2020 yy.)**

Mineral o'g'itlar fonida oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilgan variantlar nazorat variantidan 5,4-8,2 ming m<sup>2</sup>/ga.ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilgan variantlar nazorat variantidan 7,1-10,8 ming m<sup>2</sup>/ga.ga oshdi. Oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarining o'rta me'yorida yaxshi barg yuzasi shakllanganligi kuzatildi

Demak, mineral o'g'it fonida mikroo'g'itlar shonalash, gullash davrining oxiri

va dukkaklanish boshida suspenziya usulida qo'llanilganda soya navlarida barg soni va barg yuzasini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi kuzatildi.

Fotosintetik imkoniyat "Orzu" navining nazorat variantida 1,33 ming m<sup>2</sup>.kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantda bu ko'rsatkich 6,7 % oshdi. Oltingugurt mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat nazorat variantiga nisbatan 0,18; 0,28; 0,21 ming m<sup>2</sup>.kun/ga yoki 13,5; 21,1; 15,8 % oshdi. Marganes mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat nazorat variantiga nisbatan 14,3; 23,3; 17,3 % oshdi. Fotosintetik imkoniyat "Nafis" navining nazorat variantida 1,19 ming m<sup>2</sup>.kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantda bu ko'rsatkich 0,08 ming m<sup>2</sup>.kun/ga yoki 6,7 % oshdi. Oltingugurt mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat nazorat variantiga nisbatan 11,8; 15,9; 12,6 % oshdi. Marganes mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat nazorat variantiga nisbatan 0,17; 0,25; 0,19 ming m<sup>2</sup>.kun/ga, yoki 14,2; 21,0; 15,9 % oshdi. Har ikkala navda ham oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarining o'rta me'yorlarida yaxshi natija qayd etilgan.

Sof fotosintez maxsuldorligi "Orzu" navining nazorat variantida 4,5 g/m<sup>2</sup>.kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantda bu ko'rsatkich 0,2 g/m<sup>2</sup>.kun/ga yoki 4,4 % oshdi. Oltingugurt mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda sof fotosintez mahsuldorligi nazorat variantiga nisbatan 11,1; 28,9; 17,8 % oshdi. Marganes mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda sof fotosintez mahsuldorligi nazorat variantiga nisbatan 13,3; 35,6; 20,0 % oshdi. "Nafis" navining nazorat variantida 5,7 g/m<sup>2</sup>.kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantda bu ko'rsatkich 0,3 g/m<sup>2</sup>.kun/ga yoki 5,3 % oshdi. Oltingugurt mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda sof fotosintez mahsuldorligi nazorat variantiga nisbatan 12,3; 21,1; 14,0 % oshdi. Marganes mikroo'g'iti turli me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda mos ravishda sof fotosintez mahsuldorligi nazorat variantiga nisbatan 0,8; 1,4; 0,9 g/m<sup>2</sup>.kun/ga, yoki 14,0; 24,6; 15,8 % oshdi. Oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarining o'rta me'yorlarida yaxshi natija qayd etilgan.


Soya navlarining simbiotik faoliyatiga makro va mikroo'g'itlarning ta'siri aniqlandi. "Orzu" navining nazorat variantida tuganaklar soni 32,4 mln.dona/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida bu ko'rsatkich nazoratdan 5,1 mln.dona/ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 7,8-9,9 mln.dona/ga yoki 24,1-30,6 % oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 7,5-9,9 mln.dona/ga yoki 23,1-30,6 % ortdi.

"Orzu" navining nazorat variantida tuganaklar vazni 6,46 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida bu ko'rsatkich nazoratdan 0,36 s/ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 1,33-3,1 s/ga yoki 20,6-47,9 % oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 1,46-1,9 s/ga yoki 22,6-29,4% oshdi. Oltingugurt va marganes mikroo'g'itlarining o'rta me'yorida yaxshi natija qayd etildi.

"Nafis" navining nazorat variantida tuganaklar soni 27,5 mln.dona/ga, mineral

o'g'itlar qo'llanilganda bu ko'rsatkich nazoratdan 1,9 mln.dona/ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 3,1-4,8 mln.dona/ga yoki 11,3-17,5 % oshdi. Mineral o'g'itlar+marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 2,8-5,4 mln.dona/ga yoki 10,2-19,6 %ga oshdi.

“Nafis” navining nazorat variantida tuganaklar vazni 6,21 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida bu ko'rsatkich nazoratdan 0,47 s/ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantdan 10,6-15,5 % ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 7,2-13,4% oshdi (2-rasm).



**2-rasm. Mikroo'g'itlarning soya navlari tuganak soni va vazni orasida o'zaro bog'liqligiga ta'siri**

Soya navlarida quruq massa miqdoriga makro va mikroo'g'itlarning ta'siri aniqlanda Orzu navining nazorat variantida quruq massa miqdori 80,5 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida bu ko'rsatkich nazoratdan 7,6 s/ga yoki 9,4% ga oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 17,0-36,8 % oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 21,2-44,1 % oshdi. Nafis navida quruq massa miqdori nazorat variantda 97,3 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantida bu ko'rsatkich nazoratdan 6,9 % oshdi. Mineral o'g'itlar bilan oltingugurt mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 14,4-26,9 % oshdi. Mineral o'g'itlar bilan marganes mikroo'g'iti qo'llanilganda nazorat variantidan 18,4-33,6 % oshdi.

Soya navlarida pastki birinchi dukkakning joylashish balandligiga mineral o'g'itlar va mikroo'g'itlar ta'siri aniqlanganda Orzu navining nazorat variantida bu

